

моддалар, макро ва микроэлементлар тушунилади. Масалан, 1 кг беда пичанида 0.44 озука бирлиги 830 г курук модда, 144 гр хом протеин, 101 гр ҳазмланувчи протеин, 22 г хом ёғ, 253 г хом клетчатка, шунингдек, муайян миқдорда минерал ва витаминлар мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. 2019 йил 28 мартдаги «Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5696-сон Фармони
2. Мирзиёев Ш. 2019 йил 18 мартдаги. "Чорвачилик тармоғини янада ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4243-сон қарори
3. Мирзиёев Ш. 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 - сон Фармони.
4. Мирзиёев Ш. 2017 йил 16 мартдаги "Чорвачиликда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришга доир қўшимча чора- тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-2841-сон қарори.
5. Туркия Республикаси “Озиқ-овқат қишлоқ хўжалиги вазирлиги” ҳамда “Denizbank” ҳамкорлигида тайёрланган “100 та китоб”дан иборат тўплами.
6. Носиров У.Н., Мақсудов И., Досмухамедова М.Х. Ўзбекистонда қорамолчилиқни ривожлантириш омиллари. – Тошкент, 2016.
7. Носиров У.Н. Қорамолчилиқ. – Тошкент, 2001.

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA URCHITILAYOTGAN TOVUQ KROSSLARNING TURLI DAVRDA SAQLANUVCHANLIK XUSUSIYATLARI

Alimbaev B., Aitjanov R., Eshniyazova J.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Bizning tajriba ishlarimizda yosh jo‘jalarning parvarishlash davrida saqlanuvchanlik darajasi Lohmann brown-classic tovuqlarida 97,4 %-ni tashkil qilgan bo‘lsa, tuxum qo‘yish davrida esa, 92,5 %-ga teng bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich Lohmann sandy tovuqlarida shunga mos ravishda 92,5 va 94,1 %-ni tashkil qilib, parvarishlash davrida 0,8 %-ga Lohmann brown-classic jo‘jalari ustunlik qildi. Tuxum qo‘yish davrida Lohmann sandy tovuqlari ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lib 94,1% Lohmann brown-classic tovuqlariga nisbatan 1,6 %-ga ustunlik qildi. Lohmann brown-classic va Lohmann sandy krosslariga mansub parrandalarning turli davrlarda saqlanuvchanlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘sish, harorat, parvarish, classic, jo‘ja, havo, mahsulot.

Аннотация. В наших опытах сохранность молодняка в период содержания составила у кур Ломанн браун-классик 97,4%, в период

яйцекладки - 92,5%. Этот показатель составил 92,5 и 94,1% у кур Ломанн песочной породы соответственно, а у кур Ломанн браун-классик за период выращивания преобладали на 0,8%. В период яйценоскости куры Ломанн песочный показали высокую продуктивность, превосходство над курами Ломанн браун-классик на 94,1% и 1,6%. Приведены выводы по полученным данным о показателях сохранности птиц ломаннских коричнево-классических и ломаннских песчаных кроссов в разные периоды.

Annotation. In our experiments, the retention rate of young chicks during the maintenance period was 97.4% in Lohmann brown-classic chickens, and 92.5% during the laying period. This indicator was 92.5 and 94.1% in Lohmann sandy chickens, respectively, and Lohmann brown-classic chickens prevailed by 0.8% during the rearing period. During the egg-laying period, Lohmann sandy chickens showed high performance, 94.1%, and 1.6% superiority over Lohmann brown-classic chickens. Conclusions are given on the data obtained on the preservation indicators of birds belonging to the Lohmann brown-classic and Lohmann sandy crosses in different periods.

Key words. Growth, temperature, care, classic, chick, air, product.

Kirish. Parrandalarning o'sishi va rivojlanishida, mahsuldorlik ko'rsatkichlarining shakllanishida va boshqa shu kabi muhim xususiyatlarning yuzaga chiqishida stress omillarning oldini olish katta ahamiyat kasb etadi. Stress omillar deb parranda organizimini qo'zg'atib, asab tizimining ma'lum vaqtda ananaviy bir maromli qolibdan chiqishi oqibatida mahsuldorlik darajasining pasayib ketishiga olib keluvchi tashqi muhit omillariga aytiladi. Bular orasida eng muhimlari fizik omillar hisoblanib, havo harorati va namligi haddan ziyod shovqinlar, yorug'lik rejimining buzilishi shular qatoriga kiradi. Ko'p sonli ilmiy tajribalardan isbotlanganki, saqlash harorati 21-22 °C muhitda kam ozuqa sarflanish evaziga parrandalardan eng ko'p mahsulot olish mumkinligini va havo haroratining 7°C tushib ketishi yoki 27°C-gacha ko'tarilishi turli xil kasalliklariga chalinishiga olib kelishi ishlab chiqarish amaliyoti tastiqlangan. Parrandalarni saqlash xonalaridagi havodagi namlikning kamayishi organizmda suvning nafas yo'llari orqali havoga chiqishiga sabab bo'ladi va parrandalarning ishtahasi yuqolishiga olib keladi. Bundan tashqari havodagi chang zarrachalari miqdori keskin ko'payishi o'pka to'qimasiga yopishib qolishi natijasida organizmning nimjon bo'lishiga olib keladi. Tovuqlar saqlanadigan xonalar yaqinida kuchli shovqin chiqaruvchi qurilmalardan iloji boricha foydalanmaslik tavsiya etiladi, bunday kuchli shovqinlar ayniqsa, yosh parrandalarga ta'sir etib ularni stress holatiga olib keladi va natijada tirik vazni kamayishi kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Bizning maqsadimiz parrandachilik fermer xo'jaligi sharoitida tuxum yo'nalishidagi "Lohmann brown-classic", va "Lohmann sandy" tovuq krosslariga mansub tovuqlarning saqlanuvchanligini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Istiqbolli "Lohmann brown-classic", "Lohmann sandy" krosslaridan olingan jo'jalarni yoshi dinamikasida saqlash, parvarishlash, oziqlantirish, va saqlanuvchanligini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Zootexnikaviy, biologik, va statistik usulida olib borildi.


Tadqiqot natijalari. Tadqiqot ishlari natijalari ko‘ra, tajribadagi istiqbolli Lohmann brown-classic va Lohmann sandy krosslariga mansub parrandalarning turli davrlarda saqlanuvchanlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli davrlarda saqlanuvchanligi, %


Davrlar	O‘lchov birligi	Lohmann brown-classic, (n=85)	Lohmann sandy, (n=79)
Parvarishlash davrida	%	97,4	96,6
Tuxum qo‘yish davrida	%	92,5	94,1

1- jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki jo‘jalarning yoshi kesimida parvarishlash davrida saqlanuvchanlik darajasi Lohmann brown-classic tovuqlarida 97,4 %-ni tashkil qilgan bo‘lsa, tuxum qo‘yish davrida esa, 92,5 %-ga teng bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich Lohmann sandy tovuqlarida shunga mos ravishda 92,5 va 94,1 %-ni tashkil qilib, parvarishlash davrida 0,8 %-ga Lohmann brown-classic jo‘jalari ustunlik qildi. Tuxum qo‘yish davrida Lohmann sandy tovuqlari ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lib 94,1% Lohmann brown-classic tovuqlariga nisbatan 1,6 %-ga ustunlik qildi. Bizning tajriba ishlarimizda yosh jo‘jalarning saqlanadigan xonalaridagi havo harorati miqdori ko‘rsatkichlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Yosh jo‘jalarning saqlanadigan xonalaridagi havo harorati, °S

1-rasm ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, jo‘jalar 1-2 kunlik davrida o‘rtacha 35 °S zarur bo‘lgan bo‘lsa, har 3-4 kundan 2-3 °S tushirib boriladi va nihoyat 29-kunlik davridan boshlab, o‘rtacha harorat 19 °S saqlanadi. Tajribadagi parrandalarni saqlashda qo‘llanilgan yorug‘lik rejimi ma‘lumotlari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Parradalarni saqlashda yorug‘lik rejimi, soatda

Yangi chiqqan jo‘jalar (1-2 kunlik) 24 soat yorug‘lik ostida bo‘lsa kunlik davrida 16 soatga tushiriladi. Keyingi 2, 3, 4, 5 va 6-inchi haftalik davrlarida sutkasiga 1-soatdan kamaytib boriladi. 9- haftalik davridan 17-haftalik davriga kelib, sutkasiga 9-soatgacha tushiladi va 10-haftalik davridan boshlab, yana bir soatdan qo‘shib boriladi.

Xulosa. Tariqasida aytsak, parrandalarning saqlanuvchanlik darajasi ko‘pgina omillarga bog‘lik holda, asosan imkon qadar stress omillar tasirini kamaytirish muhim vazifa xisoblanadi. Parrandalarning mahsuldorligini qolaversa, ularning sog‘ligini saqlashda oziqlantirish usullari, ozuqalar tarkibi muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агеев Б.В, и другие. Термообработанный люпин в рационах кур-несушек кросса ломанн браун-классик. //ж. «Аграрный научный журнал»№11.2021.Россия.с. 64-68.

2. Астраханцев А.А, Леконцева Н.А,Наумова В.В. Яичная продуктивность кур-несушек различных кроссов.//ж. «Вестник ульяновской государственной сельскохозяйственной академии» №2 (50).2020.г, Ижевск.-с.206-210.

3.Давлатов Р. Эрматов Ю. Жужаларни асраш ва озиқлантириш технологиялари. // ж «Зооветеринария» №158. 2013. Тошкент.б.28-30